

Date: 9<sup>th</sup>December-2024

**ZEBO MIRZO IJODINING BIOGRAFIK XUSUSIYATLARI.**

**Muxtaram Mutalibova**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijodkor hissiyoti va uning atrofida bo'layotgan voqealardan qay darajada ta'sirlanishi, buning natijasida ma'lum asarlar vujudga kelishi haqida so'z boradi.

**Annotation:** This article talks about the artist's emotions and how they are affected by the events around him, as a result of which certain works are created.

**Kalit so'zlar:** qofiya, ramziy obrazlar, band, misra, istora.

**Keywords:** rhyme, symbolic images, stanza, stanza, istora.

Yozuvchining biografi bevosita uning ijodiga ham ta'sir qiladi. Xususan, Zebo Mirzo ijodida ham lirik teranlikni kuzatishimiz mumkin. Uning she'rlaridagi tabiatga oshnolik, uning iliq mehrini his qilish kabi holatlar mavjud. Aslini olganda ham ona diyorimizning tabiati, manzaralari kishini o'ziga mahliyo etib ilhomlantiradi va go'zal asarlarimiz yaratilishiga asos bo'ladi.

Shoira Zebo Mirzoning ko'plab asarlarida ham ona diyorimizning tabiatini his qilishimiz mumkin. Uning "Onamga", "Gulning ovozin eshitgim kelar", "Saraton", "Olovdaraxt", "Zangor planeta" kabi she'rlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Uning bunday she'rlar yaratishiga o'zi tug'ilib o'sgan diyor Qashqadaryo vohasining ham ta'siri bor. Hammamiz bilamizki, Qashqadaryo viloyatining tog' manzaralari, qishloqlariga bahorning kirib kelishi, daryoning irmoqlari, sharsharalarning ko'rinishi juda ham chiroyli manzara kasb etadi va kishini ilhomlantiradi. Ayniqsa shoiraning "Saraton" she'ri e'tiborga molikdir. Ushbu she'rda insonlarga tegishli barcha harakatlar, insonlarning hissiy kechinmalari tabiat hodisalariga ko'chirib tasvirlanadi.

Avvalo she'rning nomiga to'xtalib o'tsak "Saraton" yozning issiq pallasi, shuningdek tabiatning ayni go'zallashgan, har bir xislatini jilva etgan, tabiat barcha ne'matlarini saxiylik ila on'om etgan palla. Ayniqsa bu Qashqadaryoning tog'li joylarida yanada yoqimlidir.

Oftob nurlariga

Toblanib yotar

Daryoning oqbadan, go'zal toshlari.

Shoira she'rning birinchi bandida daryoning toshlarini oqbadan deya ta'riflaydi, ya'ni suv urilishi natijasida toshlar go'zallashgan. Yana bir narsani ta'kidlash kerakki, hayotimiz davomida ko'p sinovlarga uchragan, ularni yengib o'tgan Yoshi ulug' insonlarni ko'ramiz va ularni tom ma'noda go'zallashgan desak bo'ladi. Zeroki inson ham bir tosh kabidir unga qachonki ishlov berilsa shundagina u go'zallashadi.

Vujudi qizigan

Daryo qoshiga

Yugurib chiqadi chanqoq maysalar



Date: 9<sup>th</sup>December-2024

Ushbu misralar ham kishini zavqlantiradi, negaki chanqoqlikda yugurish bolalarga xosdir. Shoira istioradan unumli foydalanib bolalarning harakatini maysalarda tasvirlab she'ning jozibadorligini oshirgan.

Aslida ham she'riyatning vazifasi estetik zavq ulashish va inson tuyg'ularini tarbiyalashdir.

Bu yoniq hislarga

Bera olmay tob,

Osmon hansiraydi lablarin tutib.

Borliqqa alanga qo'yganча oftob

Ketar ufqlarda nariga o'tib...

She'ning ushbu bandi uning eng baland kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Hammamiz bilamizki "Saron" paytida quyosh botishdan avval havo juda ham issiq, nafas olish biroz qiyin bo'ladi. Mislidagi "Osmon hansiraydi" so'zlari nafas ololmay qiynalgan inson holatini ham eslatadi. Ushbu misralarda quyosh botishi hali hech kimning ijodida uchramagan tarzda tasvirlangan. She'rdagi shamolni tasvirlanishi Yoshi katta insonlarda uchraydigan harakatlar bilan tasvirlangan: "Entikib-entikib kelarkan shamol". She'ning oxirgi misralarda o'ning nomi ya'ni Hilol oy bilan yakunlanishi she'ning mavqeyini yana bir karra oshirgan. She'rda tush vaqtdan boshlanib tunda oy chiqquncha tabiatda bo'ladigan voqealar istioralar yordamida ko'rsatib berilgan. Zebo Mirzo nafaqat tabiat haqidagi balki his-tuyg'ular, hayotiy voqealar vas shu qatorda eng yaqin insonimiz bo'lmish Onalarimiz haqidagi she'rlarida yuksak insoniy hislarni tavirlab bergan. "Onamga" deb nomlangan she'rida shoira borliqdagi narsakarni ramziy obrazga olgan holda chiroyli ma'nolar yarata olgan.

Oq sochlari oppoq tun uning,

Umri halol ishqqa bayroqdir.

Oh, yuzlari dunyoyi dunning

Go'zalidan chiroyliroqdir.

Shbu misralar prqali shoira mushfiq onaning o'tgan umri haqida so'zlamogda. Onaning umrini bayroqqa va halol ishqqa qiyos etmogda. Uning oppoq sochlari esa tunga qiyoslanmogda, barchamiz bilamizki, tun albatta qora bo'ladi, undan har bir inson seskanadi, lekin ona bilan tun hech qachon qo'rqichli emas. Onaning bag'ri esa hamisha xavfsiz va qalblar taskin topadigan manzildir. Bandning oxirgi misrasida shoira bir haqiqatni oshkor etgan ya'ni barcha farzandlar uchun bu dunyoda eng chiroyli inson bu Onadir.

(Bo'lolmadim hassasichalik),

Otam dardin ko'targan mohim.

Ushoqqina onam ko'ngliga

Bir hovuch nur bergil, ilohim.

Ushbu bandda hassa so'ziga e'tibor bersak. Aslida hassa Yoshi katta insonlarimizning suyanchig'i, ularni yura olishlari uchun ko'makchi, shoira bu o'rinda o'zini hassachalik ham ko'rmaydi shu holda ramziylikka e'tibor bersak onasiga suyanch, yordam kerak bo'lgan paytda shoira ehtimol ish sabab yoki (qiz farzand bo'lgani



Date: 9<sup>th</sup> December-2024



uchun) turmushi, oilasi sababli onasini yonida bo'la olmaganidir. Shu o'rinda yana bir jihatga e'tibor berish kerak, ijodkorlar nimadandir ta'sirlansagina asar yaratadi. Ko'p hollarda asarlarda jamiyatdagi ijtimoiy voqealar tasvirlanadi, lekin ijodkorlarning ham o'z oilasi borligini ham unutmaslik kerak. Bu bilan aytmochimizki, shoira ham hayotida ma'lum bir voqealar bo'lib o'tganki onasini yonida unga keraklik paytda bo'la olmagan. Har onasini eslaganda unga qandaydir hislar, armonlar, afsuslar sherik bo'lmoqda. Lekin she'rni mana shu armonli, dardli so'zlar jozibasini oshirganini unutmaslik kerak. "Otam dardin ko'targan mohim" ushbu misralardan anhlashimiz mumkinki har bir o'zbek ayoli o'z turmush o'rtog'iga tirgak bo'ladi, uni doim qo'llab-quvvatlaydi va odatda otalarimiz farzandlaridan ham ko'proq ayoliga, onalarimizga suyanishadi. Bunga hattoki biz farzandlar ham hozirgi kunda ko'nikib qolganmiz vas hu o'rinda shoira volidasini "mohim" ya'ni oyga o'xshatib uni yagona ekanligiga urg'u beryapti. Ijodkor Allohga murojaat qilib onasining ko'ngliga nur ya'ni yorug'lik, xotirjamlik berishini so'ramoqda. Shoira o'zini chashmaga o'xshatar ekan, ona qizini voyaga yetqizgan palla qiz chashmadek o'zga xonadonga oqib ketadi.

"O'zgalarga daryo tutdim-u,  
Oh, onam-a sizni unutmim."

Ushbu misralarda shoira daryoni mehrga nisbatan ramziy ifoda qilmoqda ya'ni o'zgalarga ko'p mehr berdim-u lek inam sizni unutmim. Hattoki she'rning bir bandida onasining tirnog'ichalik bo'lolmasligini ham ta'kidlaydi. Men sizdek hali ko'p umr ko'rmadim, hayot qiyinchiliklariga duch kelmadim va siz menga bergan mehrday mehr berolmadim demoqchiday go'yo. Ijodkor she'rda qaldirg'ochlarni keltirib o'tar ekan, ularni maqtaydi, chunki hammamizga ma'lumki qaldirg'och bahorda kelgan payt hamma uyni shodlantiradi va u doim xona ichidagi insonlarga ko'rinib, hamroh bo'lib turadi. Qaldirg'och bahordan darak olib kelishi mushfiq onani bir xursand qilgan bo'lsa, u bilan tun-u kun hamroh bo'lishi u bilan uzoq vaqt birga bo'lishi yana bir karra xursand qiladi ya'ni qiz farzandidan ham ko'proq shu qaldirg'och uning yonida bo'ladi. She'rning yuqori va ta'sirli joyi uning eng oxirgi misralaridir.

"Rabbim, meni gul qilib yarat,  
Hech bo'lmasa, uning poyiga."

Ijodkor yana bir marotaba Allohga murojaat qilib, meni gul qilgin onamni shu orqali xursand qilay degan ma'noda iltijo qilmoqda. Shu yerda yana bir narsani ham anglash mumkinki ya'ni onam mendan nimani orzu qilgan bo'lsa hammmasini amalga oshirishga yordam ber, men uni o'z mehnatlarim ila quvontiray. Chunki har bir ona farzandini dunyoga keltirib qo'ygan unda o'z orzularini o'ylay boshlaydi, undan nimadir umid qiladi, o'z jigargo'shasini orzularini amalga oshiruvchisi deb biladi.

She'rda ona siymosi uning fidokorligi, farzandning ona xizmatida bo'la olmaganidan afsus chekkani haqidagi g'oyalar ilgari suriladi.

Zebo Mirzo hozirgi davr ijodkoridir. Hozir esa ijodkor o'z his-tuyg'ularini, o'y-kechinmalarini erkin bayon qila olish xususiyati bilan avvalgilardan farq qilishmoqda. Zebo Mirzoning ko'ngil haqidagi: "Ko'ngil kamdan kam uyg'onadi. Uyg'ondimi, insoniyatga yangi hayotni tuhfa etadi" ushbu fikrlari e'tiborga molikdir. Shoiraning yana bir fikri juda

Date: 9<sup>th</sup> December-2024

ajoyibdir:”So‘zlar osmondan tushadi,agar ko‘nglingiz osmonga yetgan bo‘lsa... Ijod bu iloh bilan suhbarlashuvdir”.Bundan anglashimiz mumkinki,shoiraning barcha she‘rlarining ta’sirliligi bejiz emas ekan.

**ADABIYOTLAR:**

- 1.Tojimatova, Z. (2020, December). BIOGRAPHICAL FEATURES IN LYRIC IMAGE. In Конференции.
2. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – С. 19-24.
3. Tojimatova, Z. (2020, December). BIOGRAPHICAL FEATURES IN LYRIC IMAGE. In Конференции.
- 4.T.Boboyev.Adabiyotshunoslik asoslari.
- 5.Dilmurod Quronov.Adabiyotshunoslikka kirish.
- 6.Hotam Umurov.Adabiyotshunoslik nazariyasi.

